

## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI NUTQINI O‘STIRISHDA MUSTAQIL ISHLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI**

*Andijon viloyati, Marhamat tumani  
Rahmonova Shohidaxon G’ofurjonovna  
29-maktab Boshlang‘ich sinf fani o‘qituvchisi.*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishda mustaqil ishlarning o‘rni va ahmiyati tahlil qilinadi. Mustaqil ishlarning o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutq ravonligini shakllantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni yaxshilashga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ishlar orqali o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishi an’anaviy ta’lim metodlariga nisbatan samaraliroq kechadi. Shuningdek, maqolada boshlang‘ich sinflarda nutq rivojini yaxshilashga qaratilgan samarali mustaqil ish turlari va ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq rivoji, mustaqil ishlar, boshlang‘ich sinf, ta’lim metodlari, o‘quv jarayoni.

### **Kirish**

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchilarning so‘z boyligi kengayadi, nutq ravonligi shakllanadi va muloqot qobiliyatları rivojlanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qitishning interfaol va innovatsion usullari muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarning mustaqil ishlari ularning nutqiy rivojlanishida katta ahmiyat kasb etadi.

Mustaqil ishlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil ishlari ularning bilimini chuqurlashtirish, mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish va kommunikativ ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahmiyati, ularning turlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadigan mustaqil ish metodlari va ularni ta’lim jarayonida samarali qo’llash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarga innovatsion, ilg‘or usullar va metodlarni qo’llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’lim berish hamda o‘quvchilarning ta’limdagি sifat samaradorligini

oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan “mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” vazifasi kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub islohotlar zamirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi.

Nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida - chi, nutq – bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagи predmetlar va hodisalarни sezgi organlari yordamida va nut vositasida idrok etadi. So'z signalizatsiyasi, ya'ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari, odam organizmining nutq tovushlari hosil bo'lishida qatnashadigan turli qismlari. Aktiv nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo'shlig'i kiradi.

Nutqning tashqi va ichki, og'zaki va yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog'lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi. So'zlanmaydigan va yozmaydigan ichki nutq, ya'ni o'zi uchun bo'lган nutq ong? O'zini bilish, tafakkur jarayonlarida g'oyat muhim ro'l o'ynaydi. Yozma nutq (xat yozish va o'qish) funksional jihatdan ichki nutq (yozilajak narsani ichida inchirlash, tovush chiqarmasdan o'qish) bilan chambarchas bog'liqidir.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u astasekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Kichik yoshdagи mакtab o'quvchilariga ma'naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o'qish nutq o'stirish ta'lim – tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, ularning mutanosibligini ta'minlashda, milliy tilning tabiatini va o'ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni qiroat

bilan o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioya qilish, o'qish, o'qish metodlarini takomillashhtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limini to'g'ri tashkil etish, tarbiyalanuvchilar ma'naviy kamolotini ta'minlashda topishmoqlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuga bag'ishlangan adabiyotlarda qayd etilishicha, topishmoqlar ko'p asrlik xalq donishmandligi durdonalari sifatida inson idroki, kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o'stiruvchi badiiy yaratiqlardir. Ular quvnoq o'yin, ma'naviy dam olish vositasi bo'libgina qolmay, ajdodlar ruhiy olami, tarixiy o'tmishini bilishda kalit vazifasi ham o'taydi. Og'zaki adabiyotni, shu jumladan topishmoqlarni ham xalq ko'ngilxushligi deb qarash unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodining har bir namunasi o'sha millatning aqli, vijdoni, sobit ma'naviy qiyofasi va tarixiy xotirotidir.

Maqol va topishmoq - bu ikki tushuncha inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Maqollar insonni axloq-odobga o'rgatsa, topishmoqlar uni mantiqiy fikrlashga, topqirlikka, hozirjavoblikka undaydi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizda «So'z ko'rki maqol», deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi. Biror-bir fikrni uqtirishda ishlatilgan maqol uni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Maqollar pandnasihatlar, tarbiyaviy suhbatlarda o'git sifatida ham keladi. Shuning uchun uni «Otalar so'zi» ham deyishadi. Buning boisi, har bir maqol ota-bobolarimiz tomonidan yaratilib, bir necha mingylliklar davomida sayqal topib kelayotgani, yaxshilik, ezgu ishlarga undaydigan bebahoh ma'naviy boyligimiz ekanidir. Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytildi. Bu fikr rad etib bo'lmaydigan hukm shaklida keltiriladi. Masalan, "Ona yurting omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas", «Ona yurting - oltin beshiging», «Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l», "Bulbul chamanni sevar, odam - vatanni" kabi maqollarni hech bir e'tirozsiz qabul qilamiz. Chunki bu maqollarda bolalarni ona Vatanni sevishga, Vatanga muhabbat Onaga muhabbat kabi muqaddas va yuksak tuyg'uligini uqdirishga qaratilgan.

Ma'lumki, ko'plab maqollardagi yana bir xususiyat ularda so'zlarning qofiyadosh bo'lib kelishidir. Masalan, «Yuz ko'rki soqol, so'z ko'rki maqol», «Aql - yoshdan, odob boshdan». Shu xislati bilan maqollar topishmoqlarga o'xshab ketadi. «Bir parcha patir, olamga tatir» (oy) topishmog'idagi «patir» va «tatir» so'zlaridek, maqoldagi «yoshdan» va «boshdan» so'zları bir-biriga qofiyadoshdir. Biroq bu o'xshashlik tashqi shaklda ko'rindi. Mazmunan ular o'zida boshqa-boshqa ma'nolarni tashiydi. Maqol ibratli fikrni anglatsa, topishmoq kishini jumboqda yashiringan ma'noni topishga undaydi, idrokini sinaydi. Bularning barchasi mактаб yoshidagi bolalar uchun nutq o'stirish va teran fikrlash vositasini bajaradi.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim aktiv egallahshlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilap nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi,

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatlari o'stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan idorasi baquvvat, imoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ana shunday keyin ongli turmmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda inson o'z aqli, o'z tafkkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli tarzda ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Barcha ma'naviy axloqiy fazilatlarning poydevori, tushunchalari, ko'nikmalri bolalikdan tarkib toptirilmasagina, bu poydevor barqaror bo'ladi. Ma'naviy axloqiy fazilatlar tarkibida nutq, muloqot, munosabat madaniyati alohida o'rinn tutadi. O'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir.

Bu o'qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o'quvhilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. Aagar bolalar darsga e'tiborsiz o'tirsalar, demak, o'qituvchi nutqining ta'siri kuchi sust. O'qituvchining mahorti shundaki, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intlishga chorlashi kerak.

### **Foydalanilgana adabiyotlar**

1. I.S. Khotamov, M.K. Olimov. Kreativ fikrlash, uslubiy qo'lanma. -Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi , 2021
2. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :-Toshkent 2015

3. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. -Toshkent: O 'qituvchi, 1991.40bet.
4. Diyora, A. (2025). GENDER EQUALITY AND SOCIAL DEVELOPMENT. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(30), 60-62.
5. Бабаджанова, Ф. Ф. (2015). Способы эмоционального воздействия на проявление научно-творческих способностей личности в юношеском возрасте. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 92-96.
6. Akhnazarova, D. (2023). THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF CREATIVITY IN PSYCHOLOGY. *Science and innovation*, 2(B5), 343-346.
7. Ахназарова Диёра Эркин кизи. HISTORY AND STUDY OF GENDER STUDIES // Science and Innovation – 2024-T 5 – №.3 – С 16-19.
8. Akhnazarova D. (2024). HISTORY AND STUDY OF GENDER STUDIES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11176230>
9. Ахназарова, Д. Э. (2023). TALABALARDA IJODKORLIK QOBILIYAT XUSUSIYATLARINI NAMOYON BO 'LISHINING O 'ZIGA XOS PSIXOLOGIK LIHATLARI: Axnazarova Diyora Erkin qizi Guliston Davlat Universiteti stajor-tadqiqotchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 96-99.
- 10.Ахназарова, Д. Э. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ. *Universum: психология и образование*, (9 (111)), 23-24